

**TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA STRATEGIK BOSHQARISHNI
TAKOMILLASHTIRISH****Xusanboyeva Shaxzodaxon Foziljon qizi**

TTYSI iqtisodiyot fakulteti

Iqtisodiyot va Menejment kanfedrasi 2-bosqich talabasi.

Mob:99895-888-35-06 Pochta: shahzoda0306oo@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.18681184>

Annotatsiya. Bugungi globallashuv sharoitida to‘qimachilik sanoati milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bozor talablari tez o‘zgarib borayotganligi, raqobat kuchayib borayotgani hamda texnologik yangilanishlar korxonalaridan samarali va uzoq muddatli strategik boshqaruvni talab qiladi. Strategik boshqaruvni takomillashtirish to‘qimachilik korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: strategik boshqaruv, korxona faoliyati, raqobatbardoshlik, trend, boshqaruvni takomillashtirish, ichki va tashqi omillar, innovatsiya, integral ko‘rsatkich, strategiya, baholash, korxona barqarorligi.

Annotation. In the context of globalization, the textile industry is considered one of the key sectors of the national economy. Rapid changes in market demand, increasing competition, and technological advancements require enterprises to implement effective and long-term strategic management. Improving strategic management is an important factor in enhancing the competitiveness of textile enterprises, expanding export potential, and ensuring sustainable development.

Keywords: strategic management, enterprise activity, competitiveness, trend, management improvement, internal and external factors, innovation, integral indicator, strategy, evaluation, enterprise sustainability.

Аннотация. В условиях глобализации текстильная промышленность считается одной из важнейших отраслей национальной экономики. Быстрые изменения рыночного спроса, усиление конкуренции и технологические обновления требуют от предприятий эффективного и долгосрочного стратегического управления. Совершенствование стратегического управления является важным фактором повышения конкурентоспособности текстильных предприятий, расширения экспортного потенциала и обеспечения устойчивого развития.

Ключевые слова: стратегическое управление, деятельность предприятия, конкурентоспособность, тренд, совершенствование управления, внутренние и внешние факторы, инновации, интегральный показатель, стратегия, оценка, устойчивость предприятия.

Strategik boshqaruv — bu korxonaning uzoq muddatli maqsadlarini belgilash, tashqi va ichki muhitni tahlil qilish, resurslardan samarali foydalanish hamda raqobat ustunligini ta’minlashga qaratilgan boshqaruv jarayonidir. To‘qimachilik korxonalarida strategik boshqaruv quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi:

1. Bozorni o‘rganish va talabni prognozlash
2. Qobatchilar faoliyatini tahlil qilish
3. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish
4. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish

5. Eksport imkoniyatlarini kengaytirish

Har qanday korxonaning uzoq muddatli yutuqlari ishlab chiqilgan strategiyaga bog'liq bo'ladi. Agar korxonaning rivojlanish strategiyasi bo'lmasa u yoki bu xatoliklar bilan ishlab chiqilgan bo'lsa, bu hol korxonaga bozorda barqaror va mustahkam o'rin egallash uchun imkon bermaydi.

Zamonaviy ilm-fan va amaliyot strategik rejalashtirish hamda boshqarishning katta tajribasiga ega, ammo ko'pgina strategiyalar haligacha tashqi va ichki muhitning o'zgaruvchan shart-sharoitlariga moslasha olmayapti. Bu hali hanuzgacha strategik boshqarishning barcha muammolari ham o'z yechimini topmaganligini ko'rsatadi, bunday hol, birinchi navbatda, korxona rivojlanishi strategik barqarorligining mexanizmlarini ishlab chiqish bilan bog'liq.

Ko'plab to'qimachilik korxonalarida strategik boshqaruv tizimi yetarli darajada rivojlanmagan. Bunga uzoq muddatli strategik rejalashtirishning sustligi, zamonaviy boshqaruv usullaridan yetarli foydalanilmasligi, innovatsion faoliyatning past darajasi, marketing va bozor tadqiqotlariga e'tibor kamligi, malakali menejer va mutaxassislar yetishmasligi kabi holatlar sabab bo'lmoqda. Natijada ayrim korxonalar ichki va tashqi bozorda raqobatbardoshligini yo'qotmoqda.

To'qimachilik korxonalarida strategik boshqaruv samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

1. Strategik rejalashtirish tizimini rivojlantirish

Korxonalar uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishi, aniq maqsad va ko'rsatkichlarni belgilashi lozim. SWOT, PEST va boshqa tahlil usullaridan foydalanish strategik qarorlar sifatini oshiradi.

2. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish

Zamonaviy uskunalar, raqamli boshqaruv tizimlari va avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish jarayonlari mahsulot sifatini oshirib, tannarxni kamaytiradi. Innovatsiya strategik rivojlanishning asosiy omili hisoblanadi.

3. Marketing strategiyasini kuchaytirish

Bozorni chuqur o'rganish, brend yaratish, mijozlar ehtiyojini tahlil qilish hamda zamonaviy marketing vositalaridan foydalanish korxonaning raqobatbardoshligini oshiradi.

4. Kadrlar salohiyatini rivojlantirish

Strategik boshqaruv samaradorligi ko'p jihatdan inson resurslariga bog'liq. Menejer va mutaxassislarning malakasini oshirish, treninglar tashkil etish va motivatsiya tizimini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

5. Eksport strategiyasini takomillashtirish

Xalqaro standartlarga mos mahsulot ishlab chiqarish, tashqi bozorlarga chiqish strategiyasini ishlab chiqish va logistika tizimini yaxshilash eksport hajmini oshirishga yordam beradi.

6. Raqamli transformatsiya

ERP, CRM va boshqa raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish boshqaruv samaradorligini oshiradi, resurslar nazoratini kuchaytiradi va tezkor qaror qabul qilish imkonini beradi.

Strategiya aniqlik, shaffoflik, manfaatlar muvozanatini ta'minlash, nazoratning uzluksizligi va loyihaviy yondashuv tamoyillariga asoslanadi.

Aniqlik tamoyili har bir davlat ishtirokidagi korxonaga nisbatan maqsadni shakllantirish va belgilashni, unga erishish usullarini, boshqaruv qarorlarini qabul qilish tartibini, hisobotni va boshqa boshqaruv mexanizmlarini tavsiflaydi.

Shaffoflik tamoyili davlat ishtirokidagi korxonalar va ularda davlat nomidan mulkdor (aksiyador, ishtirokchi, muassis) funksiyasini amalga oshirayotgan davlat organlari haqidagi ma'lumotlarning ochiqligi, mavjudligi va oshkoraligini, korxonalar haqidagi ma'lumotlarni aniqlash va hisobini yuritishni, shu jumladan, xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini amalga oshirish orqali ta'minlaydi.

Strategik boshqaruv tizimi takomillashtirilganda ishlab chiqarish samaradorligi oshadi, mahsulot sifati yaxshilanadi, korxonaning raqobatbardoshligi kuchayadi, eksport hajmi ortadi, innovatsion faoliyat rivojlanadi, moliyaviy barqarorlik ta'minlanishi kabi natijalarga erishiladi.

Hozirgi paytda korxonani rivojlantirishiga faqat innovatsiyalarni uzluksiz ravishda joriy etilishi bilangina erishish mumkin. M.Porter kompaniyalarning raqobatli ustunlikka erishishlarida innovatsiyaning rolini quyidagicha aniqlagan: "...kompaniya raqobatdagi ustunlikni innovatsiyalar vositasida qo'lga kiritadi.

Ular yangi kiritilgan tartib-qoidalarga ham yangi texnologiyalardan, ham yangi ish usullaridan keng ma'noda foydalangan holda yondashadilar. Kompaniya yangiliklar tufayli raqobatdagi ustunliklarga erishganidan keyin, bu ustunliklarni faqat muntazam ravishda yaxshilashlar yordamida qo'lda tutib turishi mumkin.

Raqobatchilar innovatsiyalarni takomillashtirish va joriy etishdan to'xtagan har qanday kompaniyani darhol va albatta chetlab o'tib ketadilar"

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki to'qimachilik korxonalarida strategik boshqaruvni takomillashtirish — bu korxonalarning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim omildir.

Zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish, innovatsiyalarni rivojlantirish, marketing strategiyasini kuchaytirish hamda kadrlar salohiyatini oshirish orqali to'qimachilik korxonalari ichki va tashqi bozorda mustahkam o'rin egallashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Luna, A., Nizametdinov, A., & Xudayarov, R. (2023). KORXONALAR FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING CHORA TADBIRLARI.
2. Mehmonaliev, A. G. U., & Khidirov, N. G. (2022). Public finance management its modern problems. Science and Education
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/korxonalarda-strategik-boshqaruv-tizimi>